

YOSHLARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHDA MAKTAB JAMOASINING O‘RNI

Ismoilov Kamoliddin Komilovich

*O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta’lim vazirligi, Samarqand viloyati maktabgacha va maktab ta’lim boshqarmasi,
Ishtixon tumani maktabgacha va maktab ta’lim bo‘limiga qarashli
4-umumiy o‘rta ta’lim maktabi Ma’naviy va ma’rifiy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosari.*

Annotatsiya: Maqsad Kelajagimiz poydevori, ertangi kun egalarini Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash, yoshlarda vatanparvarlik hissini shakllantirishda maktab jamoasi o‘rni.

Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda maktab jamoasining ahamiyati kuchli.

Kalit so‘zlar: vatanparvarlik, maktab, na‘muna, internet, ma’suliyat, haraka, axloq, odob, ta’lim-tarbiya..

KIRISH

“Aziz farzandlarim, uyda vaqtingizni beror o‘tkazmang! Onlayn darslarni qunt bilan o‘zlashtiring! Kitob o‘qing bilimingizni oshiring, badantarbiya va jismoniy mashqlarni bir kun ham qoldirmang”

(Shavkat Mirziyoyev Miromonovich)

Kuch va ko‘rk yoshlik bezagi, qarilikning bezagi esa zakovat va mulohazakorlikdir.

(DEMOKRIT)

Qirq yosh — yoshlikning intihosi, ellik yosh — qarilikning ibtidosi.

(V. GYUGO)

Ushbu ilmiy maqolada yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda maktab jamoasining o‘rni haqida ketadi.

Yangi O‘zbekistonning yosh avlodini vatanparvarlik ruhida tarbiyalash muammosi mamlakatimiz taraqqiyoti yo‘lidagi dolzarb masalalardan biridir. XXI-asr texnologiyalar asri bo‘lganligi uchun internet rivojlanganki ijtimoiy tarmoqlardagi turli-xildagi videolar, xabarlar bolalar ongiga salbiy va ijobiy ta’sirlari, undan to‘g‘ri foydalanishdagi muammolar kiritilgan. Shunday qilib, keling, muammoni savollar bilan aniqlashga harakat. Vatanparvarlik tarbiyasining maqsadlari nimadan iborat? Vatanparvarlik tarbiyasi doirasida qanday mavzular yoritilgan? Vatanparvarlik tarbiyasi darslari qanchalik tez-tez tashkil etiladi? Bu muammolarni hal qilishda qanday imkoniyatlar yaratilgan?.

Bola avvalombor oiladan, onadan tarbiya oladi. Maktab yoshiga yetgach maktabga kelgan har bir pedagog xodim o‘ta ma’suliyatli va na‘muna bo‘lish uchun har tomonlama ya’ni kiyinish madaniyati, nutq madaniyati, odob-axloq madaniyati va boshqa jihatlariga o‘ta har bir o‘quvchi yoshlar o‘ziga yoqqan o‘qituvchiga o‘xshashni xoxlashadi. Shuning uchun

e’tiborli va mas’uliyat bilan qarash zarur ekanligi, yoshlarni kelajakda yetuk kadr, vatanga sadoqatli qilib tarbiyalashda maktab ma’muriyati o‘rni haqida yoritilgan.

ASOSIY QISM

Vatanparvarlik – mamlakatimizda yashayotgan xalqlar, ellatlar va millatlarning tili, dini, madaniyati, urf-odatlarini an’analarga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo‘lish va ularni o‘rganish, millatlararo do‘stlik, hamkorlik o‘rnatish yo‘lida fidoyilik ko‘rsatishdan iboratdir. Vatan, Vatan tuyg‘usi, vatanga sadoqatli bo‘lish, vatanparvarlik, insonparvarlik va mehr-muruvvat his-tuyg‘ularining naqadar yuksakligi, inson qalbiga yaqinligi, buyuk mutaffakir, hadisshunos va zamonasining huquqshunos olimlari hisoblanmish Imom al-Buxoriy, az-Zamaxshariy, at-Termiziy va boshqa ajdodlarimiz qarashlari va asarlarida Vatan, xalq, millat ozodligi, erkinligi haqidagi fikrlar o‘z ifodasini topgan. Vatan, vatanparvarlik, insonparvarlik va insonda mehr tuyg‘ularining naqadar yuqori tuyg‘u ekanligi va unga sodiq bo‘lib qolish, islom diniga e’tiqod qiluvchi har bir mo‘min-musulmon hayotining mazmuni ekanligi allomalarimiz asarlarida qayd etilgan. Shunday ekan yoshlar ongida oliy his-tuyg‘ularni shakllantirib borish ularni ijtimoiy turmushning murakkab vaziyatlariga moslashtirib boruvchi kelajakdagi barkamol shaxs tarbiyasi uchun zarur bo‘lgan shart-sharoitlarni yaratish imkoniyatini beradi. Mamlakatimizda ham inson va uning hayoti eng oliy qadriyat hisoblanadi. Insoniyat mavjudki, uning qadr-qimmatini ulug‘lanib kelinadi. Shu bois insonning qadr-qimmatini e’zozlash, uning turmushini yaxshilash, bilimi va madaniy saviyasini rivojlantirish, sog‘ligini muhofaza qilish, hayotini himoya qilish davlat siyosatining asosiy yo‘nalishini tashkil etadi. Jamiyatda bo‘layotgan o‘zgarishlar, islohotlar, qabul qilinayotgan qonun va nizomlarning mohiyati ham shundadir. Qadriyatlar inson va jamiyat hayotidagi o‘rni, ijtimoiy xarakteriga ko‘ra milliy va umuminsoniy, sinfiy yoki diniy, shuningdek, kishilarning yoshi, kasbiy xususiyatlariga xos qadriyatlarga bo‘lish mumkin. Bozor iqtisodiyoti tobora rivojlanayotgan hozirgi sharoitda inson o‘zining individual xususiyatlarga tayanishi, o‘z kelajagini barpo etishi lozim. Shuningdek, insonning ehtiyojlarini qondirishda tabiiy qadriyatlar ham katta ahamiyat kasb etadi. Shunday shaxsiy ehtiyojlardan biri vatanga e’tiqodning shakllanishi bilan belgilanadi. Bunday tushunchalarni shakllantirishda bir qator qadriyatlar muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Masalan, tabiiy qadriyatlar, ularga yer usti va yer osti boyliklari, konlar, suv, havo, o‘rmonlar, o‘simliklar, hayvonot dunyosi va boshqalar kiradi. O‘zbekiston zamini xilma-xil qazilma boyliklarga ega. O‘zbek xalqining milliy xususiyatlari: axloqiylik, o‘z-o‘zini anglash, milliy tuyg‘u, milliy madaniyat, milliy kiyinish va yurish-turishda o‘z aksini topadiki, xalq milliy o‘yinlarini o‘rganishda bularni chetlab o‘tish mumkin emas. O‘zbek oilalari tuzilishiga quyidagi sifatlar xosdir: ko‘p bolalilik; mehnatda jismonan chiniqish; oilada otaning bosh tarbiyachi sifatida namoyon bo‘lishi; qarindoshchilik, bir necha avlodlarning birgalikda yashashi. Shu bois respublikamizning shahar va qo‘rg‘onlarining aholisi o‘rtasida xalq milliy o‘yinlari musobaqalari o‘tkazilishi o‘sib kelayotgan yosh avlodga axloqiy fazilatlar: vatanparvarlik, matonat va qat’iyat, sabr va chidam, hamdardlik hamda mehr-oqibat kabilarni singdirishga zamin yaratadi.

Ma'lumki, axloq, xulq va atvor so'zlari arabcha bo'lib, ular o'zbek tilida ham o'z ma'nosida ishlatiladi. Axloq – ijtimoiy ong shakllaridan biri, ijtimoiy tartib-qoida bo'lib, bu tartib-qoida ijtimoiy hayotning istisnosiz hamma sohalarida kishilarning xatti-harakatlarini tartibga solish funksiyasini bajaradi. Axloq bizning hayotimiz va ongimizga faol ta'sir qiladi, kishilik jamiyati nomidan yaxshilik bilan yomonlik, adolat bilan adolatsizlik, mehr bilan zulm o'rtasida va insoniy munosabatlardagi maqbul va nomaqbul, man etilmaydigan hamda man etiladigan ishlarni, xatti-harakatlarni belgilab beradi. Insonning jamiyat, oila, vatan, mehnatga bo'lgan munosabatlarida axloq namoyon bo'ladi. Milliy-ma'naviy qadriyatlar moddiy qadriyatlarga nisbatan yashovchan xarakterga egadir. Milliy qadriyatlar jamiyat madaniyati, shaxs ma'naviyati va e'tiqodining rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir xalq o'zligini o'tmish ma'naviy madaniyati orqali anglaydi. O'zining kelajakdagi yo'lini belgilab oladi va jahon tarixida o'z o'rniga ega bo'ladi. Shuning uchun inson ma'naviy madaniyati, dunyoqarashini ijobiy tomonga yo'naltirish bugungi kunda ta'limtarbiya oldida turgan asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Jumladan, o'quvchilarda Vatanga e'tiqodni shakllantirish milliy qadriyatlarning har bir ko'rinishini uzoq tarixiy taraqqiyotning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish orqali amalga oshiriladi. O'zbek milliy-ma'naviy qadriyatlari mazmunida vatanparvarlik g'oyalari yotadi. Shuningdek, o'zaro hamkorlik va hamdardlik, vafodorlik va o'zaro hurmat, bir-biriga suyanish va yaxshi qo'shnichilik, bolajonlik va ota-onaga hurmat, mehr-oqibat va sadoqat har tomonlama e'zozlanib kelinadi. Dars ta'lim va tarbiya ishlarining markaziy qismi hisoblanib, o'quvchilarni bilim, ko'nikma, malakalar bilan qurollantirish bilan birga, ularning milliy qadriyatlarimiz haqida tushunchaga ega bo'lishi, milliy qadriyatlarda aks etgan axloqiy sifatlarni o'quvchilarda hosil qilishda muhim ahamiyatga ega. Darhaqiqat, boshlang'ich sinflarda o'qitiladigan “Tarbiya” darslari ham umumiy didaktik talablarga javob berishi, jumladan, darsda mavzuning xarakteridan kelib chiqib, xalqimizning boy pedagogik merosiga tayanishi, undan foydalanish imkoniyatlarini izlashi lozim. Shubhasiz, mustaqillik yillarida ta'lim sohasidagi islohotlardan ko'zlangan maqsadlardan biri ham dars jarayonida milliy qadriyatlar namunalarini o'rganish hamda ularda ilgari surilgan insonparvarlik, vatanparvarlik g'oyalari orqali yosh avlodni barkamol insonlar etib tarbiyalashdan iboratdir.

Dars jarayonida o'quvchilarning dunyoqarashi shakllana boradi, mustaqil fikrlashga o'rganadi, dunyoviy bilimlar bilan tanishadi va ularning uzluksizligi rivojlanib boradi. Har bir darsning muvaffaqiyati uning oldiga qo'yilgan maqsadiga bog'liqdir. Qachonki, maqsad aniq va puxta, o'quvchini har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan bo'lsa, darsning samaradorligi ta'minlanadi. Yangi O'zbekistonni taraqqiyotining ma'naviy-axloqiy negizlari hisoblangan umuminsoniy qadriyatlarga sadoqatlilik, xalqimizning ma'naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish, insonning o'z imkoniyatlarini erkin ro'yobga chiqarishi, vatanparvarlik kabilar pedagoglar madaniyatining asosini tashkil etishi bilan birga yoshlardagi ta'lim-tarbiya jarayonida to'liq o'z ifodasini topishi kerak. Bu esa ta'lim beruvchilarning ma'naviy-axloqiy qiyofasi, ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishdagi sa'y-harakati, madaniyati, ma'naviyati va o'z sohasining yetuk bilimdoni bo'lishiga bog'liq. Maktablarda tashkil etiladigan ta'lim-tarbiyaviy tadbirlar o'quvchilik

hayoti, ya’ni ularning maktab ostonasiga ilk qadam qo‘ygan kunlaridan boshlanadi. “Mustaqillik” bayrami, “Konstitutsiya kuni”, “Yangi yil”, “Harbiylar kuni”, “Mashhur allomalarning tug‘ilgan kunlari”, 8-mart “Xalqaro xotin-qizlar bayrami”, “Navro‘z” bayrami, “Gullar”, “Mehrjon” bayramlari kabilar. Mana shunday tadbirlar bevosita o‘quvchilarda vatanga e’tiqodni shakllantirishga xizmat qiladi. Bu tadbirlar uchun xalq og‘zaki ijodi, badiiy adabiyot namunalari muhim manba hisoblanadi. O‘quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda uyushtiriladigan sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy tadbirlar ma’lum talablarga javob berishi lozim. Ya’ni: tarbiyaviy tadbirning rejali, maqsadli, izchil va tizimli o‘tkazilishi; tarbiyaviy tadbirni hamkorlik pedagogikasi asosida tashkil etish; o‘quvchi yoshlar, psixologik va fiziologik xususiyatlarni hisobga olish; tarbiyaviy tadbirlar o‘quvchilarning qiziqishi, mayli, intilishlariga javob berishi; hayotiy muammolarning yechimini topishga yo‘naltirilganligi; ta’lim jarayonida olingan axloqiy ma’naviy bilim, malaka va ko‘nikmalarni mustahkamlash, to‘ldirish va rivojlantirish. O‘quvchilarning imkoniyatlari darajasidan kelib chiqqan holda ishlarni taqsimlash: tadbirni amalga oshirish; tadbir natijalarini tahlil qilish va baholash. Bosqichlarning har biri o‘qituvchi tomonidan oldindan chuqur o‘rganilgan bo‘lishi lozim. Yuqoridagi vazifalarni amalga oshirishda quyidagi metodik tavsiyalarni keltirish mumkin: yoshlar bilan o‘tkazilayotgan tadbirlarga rahbarlik qilishda, avvalo, milliy qadriyatlar, ularning ahamiyatliligi, ijtimoiy xarakteriga e’tibor berish kerak; yaxshi ishtirok etgan yoshlarni sinf va maktab jamoasi oldida rag‘batlantirish; darsdan tashqari tadbirlar orqali o‘quvchi shaxsidagi axloqiy sifatlarni rivojlantirish yo‘llarini izlash; sinfdan tashqari mashg‘ulotlarga rahbarlik qilish jarayonida ba’zi o‘quvchilarda mavjud salbiy xususiyatlarni bartaraf qilib borish. Mazkur ishlarni amalga oshirishda har bir boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi, eng avvalo, tashkil qilinadigan tarbiyaviy tadbirlarning mazmunini chuqur o‘rganishi, uning natijalariga jiddiy e’tibor berishi va bu bilan o‘quvchi shaxsiga ijobiy ta’sir etishga intilmog‘i, vatanga e’tiqod, milliy g‘urur, vatan ravnaqi uchun xizmat qilish, qolaversa, ona tabiatni asrash kabi sifatlarni yanada rivojlantirish yo‘llarini izlamog‘i lozim.

Vatanparvarlik tarbiyasi doirasida maktabda har juma kuni tarbiyaviy soat darslari tashkil qilingan bundan tashqari vatanparvarlik tarbiyasi doirasida maktabda yoritiladigan mavzular o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini, maktabning o‘ziga xos sharoitlarini va mamlakatdagi siyosiy-ijtimoiy vaziyatni hisobga olgan holda belgilanadi. Biroq, odatda quyidagi mavzular yoritiladi:

Usul: Vatanparvarlik tarbiyasining ahamiyati

Maktab jamoasining roli

Vatanparvarlik tadbirlari

Ota-onalarning roli

Birinchidan O‘zbekiston tarixi va davlatchiligi:

O‘zbekistonning qadimiy tarixi, Buyuk ipak yo‘li, Sohibqiron Amir Temur davri, Temuriylar renessansi, vatanimiz mustaqillikka erishishi, milliy davlatchilikning tiklanishi, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, davlat ramzlari (bayrog‘i, gerbi, madhiyasi) va ularning ahamiyati, O‘zbekistonning hududiy yaxlitligi va chegaralarining daxlsizligi.

Ikkinchidan O'zbekistonning milliy qadriyatlari va madaniyati:

O'zbek xalqining boy tarixi, madaniyati, an'analari, urf-odatlar va ma'naviy merosi, o'zbek tilining davlat tili sifatidagi roli va ahamiyati, yurtimiz buyuk allomalari (Al-Xorazmiy, Al-Beruniy, Ibn Sino, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug'bek va boshqalar)ning hayoti va ilmiy merosi, milliy hunarmandchiligimiz, san'ati, adabiyot va musiqa, navro'z, Mustaqillik kuni, Xotira va qadrlash kuni kabi milliy bayramlar va ularning ahamiyati va tarixi.

Uchinchidan O'zbekistonning bugungi kuni va kelajagi:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining siyosati, mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlar, yoshlarga yaratilayotgan imkoniyatlar, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlanishi, Xalqimiz kelajagi, yoshlarning mamlakat taraqqiyotiga qo'shadigan hissasi, O'uvchilar samarali bilim olishlari uchun maktablarda yaratilgan barcha shart-sharoitlar,

To'rtinchidan Vatan himoyasi va harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi:

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari, ularning tuzilishi, vazifalari va ahamiyati, Vatan himoyasining muqaddas burch ekanligini chuqur singdirish, harbiy kasblarning ahamiyati, harbiy xizmatga tayyorgarlik va CHQBT fani darslarini nazariy va amaliy tarzda samarali o'tish, qahramonlar yurt tinchligi uchun o'z jonidan ham kechgan harbiylarimiz va milliy qahramonlarimiz.

Beshinchidan fuqarolik burchi va mas'uliyati:

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga hurmat bilan qarash, o'z huquqlarini bilish va ularni himoya qila olishga o'rgatish va o'qitish, o'z burchlarini bajarish va mas'uliyatni his qilishiga yordam berish va ongiga chuqur singdirish.

Oltinchidan tabiatni muhofaza qilish:

O'zbekistonning qizil kitobga kiritilgan yo'qolish arafasida turgan o'simlik va hayvonot dunyosini asrab-avlaylash, ekologik muammolar va ularning oqibatlar va tabiatga biz yetkazayotgan zararli odatlar yani chiqindilarni har joylarga to'kish, kimyoviy zavodlar va boshqalari, atrof-muhitni muhofaza qilishning ahamiyati va tabiatni asrash bo'yicha amaliy tadbirlarda tashkil etish.

Yettinchidan yurtimiz rivojlanishida ulkan hissasini qo'shayotgan sportchilarimiz haqida darslarda muntazam na'muna sifatida o'quvchilarga yoritib borish yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda samarali tashkil qilinishi lozim.

Ushbu mavzular maktabning o'quv rejasiga, sinfdan tashqari tadbirlarga va tarbiyaviy soatlarga integratsiya qilinishi mumkin. Vatanparvarlik tarbiyasi darslari interaktiv usullarda, o'yinlar, munozaralar, loyihalar va boshqa qiziqarli shakllarda tashkil etilishi tavsiya etiladi.

Masalan:

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida, harbiy litseylarda yoki boshqa ta'lim muassasalarida vatanparvarlik tarbiyasi darslari turlicha tashkil etilishi, Vatanparvarlik tarbiyasi faqat darslar bilan cheklanibgina qolmay Maktabda turli xil sinfdan tashqari tadbirlar (ko'rik-tanlovlar, musobaqalar, uchrashuvlar, ekskursiyalar) ham tashkil etilishi mumkin.

Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda maktabda muammolarni hal qilish uchun bir qator imkoniyatlar yaratilgan. Bu imkoniyatlar o'quv jarayonini takomillashtirish, sinfdan tashqari faoliyatni rivojlantirish, o'qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirish va oilalar bilan hamkorlikni mustahkamlashga qaratilgan.

1. Normativ-huquqiy baza:

-O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni: Ushbu qonun ta'lim tizimining asosiy vazifalaridan biri sifatida yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashni belgilaydi.

-O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Vatanparvarlik ruhidagi yoshlarni tarbiyalash konsepsiyasi to'g'risida"gi qarori: Mazkur qaror vatanparvarlik tarbiyasining ustuvor yo'nalishlarini, maqsad va vazifalarini belgilab beradi.

-Ta'lim standartlari va o'quv dasturlari: Barcha fanlarning ta'lim standartlari va o'quv dasturlariga vatanparvarlik g'oyalari singdirilgan.

2. O'quv jarayonini takomillashtirish:

-Vatanparvarlikka oid mavzularni o'quv fanlariga integratsiya qilish: Tarix, adabiyot, geografiya, o'zbek tili va boshqa fanlar orqali o'z Vatanining o'tmishi, buguni va kelajagi haqida bilim berish.

-Interaktiv ta'lim metodlaridan foydalanish: Munozaralar, bahs-munozaralar, rolli o'yinlar, loyihalar, tadqiqotlar orqali o'quvchilarning faolligini oshirish.

-Zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish: Multimedia taqdimotlari, videofilmlar, virtual ekskursiyalar, onlayn resurslar orqali darslarni yanada qiziqarli qilish.

-Qo'shimcha o'quv materiallari bilan ta'minlash: Vatanparvarlik ruhidagi kitoblar, filmlar, qo'llanmalar va boshqa materiallar bilan ta'minlash.

3. Sinfdan tashqari faoliyatni rivojlantirish:

-To'garaklar va klublar: "Yosh vatanparvarlar", "Yosh chegarachilar", "Yosh qutqaruvchilar" kabi to'garaklar va klublar tashkil etish.

-Musobaqalar va tanlovlar: "Eng yaxshi vatanparvar o'quvchi", "Men Vatanimni sevaman" kabi musobaqalar va tanlovlar o'tkazish.

-Uchrashuvlar va tadbirlar: Urush va mehnat faxriylari, O'zbekiston Qahramonlari, taniqli sportchilar va san'atkorlar bilan uchrashuvlar tashkil etish.

-Ekskursiyalar va sayohatlar: Tarixiy obidalar, muzeylar, harbiy qismlarga ekskursiyalar va sayohatlar uyushtirish.

-Vatanparvarlik aksiyalari: "Obod yurt", "Yashil makon" kabi vatanparvarlik aksiyalarida ishtirok etish.

-Harbiy-sport o'yinlari: "Shunqorlar", "Temurbek vorislari" kabi harbiy-sport o'yinlarini o'tkazish.

4. O'qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirish:

-Malaka oshirish kurslari: O'qituvchilarning vatanparvarlik tarbiyasi bo'yicha bilim va ko'nikmalarini oshirish uchun malaka oshirish kurslarini tashkil etish.

-Seminarlar va treninglar: Zamonaviy ta'lim metodlari, interaktiv usullar va axborot texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha seminarlar va treninglar o'tkazish.

-Tajriba almashish: Ilg‘or tajribali o‘qituvchilarning ish usullarini ommalashtirish, tajriba almashish tadbirlarini tashkil etish.

-Metodik yordam ko‘rsatish: O‘qituvchilarga vatanparvarlik tarbiyasi bo‘yicha metodik materiallar, qo‘llanmalar va tavsiyalar bilan yordam ko‘rsatish.

5. Oilalar bilan hamkorlikni mustahkamlash:

-Ota-onalar majlislari: Vatanparvarlik tarbiyasi masalalari bo‘yicha ota-onalar majlislari o‘tkazish.

-Seminarlar va treninglar: Ota-onalar uchun vatanparvarlik tarbiyasi bo‘yicha seminarlar va treninglar tashkil etish.

-Hamkorlikdagi tadbirlar: Maktab va oila hamkorligida vatanparvarlik tadbirlarini (sport musobaqalari, konsertlar, ko‘rik-tanlovlar) tashkil etish.

-Ota-onalar qo‘mitasi: Vatanparvarlik tarbiyasi bo‘yicha ota-onalar qo‘mitasini tashkil etish va uning faoliyatini qo‘llab-quvvatlash.

6. Moddiy-texnik ta‘minot:

-Maktab kutubxonalarini boyitish: Vatanparvarlik ruhidagi badiiy adabiyotlar, tarixiy kitoblar, ensiklopediyalar bilan ta‘minlash.

-Sport zallari va maydonchalarini jihozlash: Jismoniy tarbiya darslari va sport tadbirlarini o‘tkazish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish.

-Multimedia uskunalarini bilan ta‘minlash: Kompyuterlar, proyektorlar, interaktiv doskalar va boshqa zamonaviy uskunalar bilan ta‘minlash.

-Harbiy xonalarni tashkil etish: Harbiy chaqiriqqacha tayyorgarlik darslarini o‘tkazish uchun zarur shart-sharoitlar yaratilgan.

Har bir insonning shakllanishida oila va ayniqsa, onaning o‘rni beqiyos ekanligi haqiqat. Bola hayotining ilk yillarida olgan tarbiyasi uning kelgusidagi shaxs sifatida kamol topishida muhim ahamiyat kasb etadi. Maktab yoshiga yetgan har bir o‘g‘il-qiz uchun esa maktab - yangi bir dunyo, ustozlar esa - ilm-ma‘rifat yo‘lidagi mash‘aladir. Shu nuqtai nazardan, maktab ma‘muriyati va pedagog xodimlarning zimmasiga ulkan mas‘uliyat yuklanadi.

Pedagog xodimlar: Namuna va mas‘uliyat timsoli sifatida maktabga kelgan har bir pedagog xodim nafaqat o‘z fanining bilimdoni, balki o‘quvchilar uchun ibratli namuna bo‘lishi zarur. O‘quvchilarning ongida o‘qituvchining shaxsi, uning xulq-atvori, dunyoqarashi va madaniyati alohida o‘rin egallaydi. Shuning uchun ham, pedagog xodim quyidagi jihatlarga o‘ta e‘tiborli bo‘lishi kerak:

- Kiyinish madaniyati: O‘qituvchining tashqi ko‘rinishi ozoda, did bilan tanlangan va maktab muhitiga mos bo‘lishi lozim. Bu o‘quvchilarda estetik didni shakllantirishga yordam beradi.

- Nutq madaniyati: O‘qituvchi nutqi ravon, to‘g‘ri, adabiy til me‘yorlariga mos va so‘z boyligi yuqori bo‘lishi kerak. Bunday nutq o‘quvchilarda o‘z fikrini to‘g‘ri ifodalash ko‘nikmasini rivojlantiradi.

-Odob-axloq madaniyati: O'qituvchi o'zini tuta bilishi, o'quvchilar va hamkasblari bilan muomalasida xushmuomala, sabrli va hurmatli bo'lishi lozim. Bu o'quvchilarda odob-axloq qoidalariga rioya qilish tuyg'usini shakllantiradi.

- Kasbiy mahorat: O'qituvchi o'z fanini chuqur bilishi, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalana olishi va o'quvchilarning qiziqishini uyg'ota oladigan darslar tashkil eta olishi kerak.

Har bir o'quvchi o'ziga yoqqan, hurmat qilgan o'qituvchisiga o'xshashga intiladi. Bu intilishni to'g'ri yo'naltirish, o'quvchilarda ijobiy fazilatlarni shakllantirish va ularni kelajakda yetuk kadr bo'lishga ilhomlantirish - pedagog xodimlarning muhim vazifasidir.

Maktab ma'muriyatining o'rni: Vatanparvar va yetuk kadrlarni tarbiyalashda strategik yondashuv maktab ma'muriyati - ta'lim muassasasining yuragi, u yerda ta'lim jarayonini tashkil etish, o'qituvchilarning kasbiy o'sishini ta'minlash va o'quvchilarni tarbiyalash bo'yicha strategik qarorlar qabul qilinadi. Yoshlarni kelajakda yetuk kadr, vatanga sadoqatli insonlar etib tarbiyalashda maktab ma'muriyatining o'rni beqiyosdir.

Ma'muriyatning asosiy vazifalari:

1. Qulay muhit yaratish: Maktabda o'quvchilarning bilim olishi, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishi va o'zini shaxs sifatida namoyon qilishi uchun qulay muhit yaratish.

2. Pedagog xodimlarni qo'llab-quvvatlash: O'qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirish, ularning tajriba almashishlari uchun imkoniyat yaratish, ularni rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash.

3. O'quv jarayonini takomillashtirish: Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish, darslarning sifatini oshirish, o'quvchilarning bilimni baholashning adolatli va shaffof tizimini yaratish.

4. Vatanparvarlik tarbiyasini kuchaytirish: Vatanparvarlik ruhidagi tadbirlar, uchrashuvlar, ko'rik-tanlovlar tashkil etish, o'quvchilarni milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash.

5. Ota-onalar bilan hamkorlikni mustahkamlash: Ota-onalar majlislarini o'tkazish, ota-onalar qo'mitasi bilan hamkorlik qilish, ota-onalarni maktab hayotiga jalb qilish.

6. Moddiy-texnik bazani yaxshilash: Maktabni zamonaviy o'quv qurollari, kompyuterlar, laboratoriya uskunalari va boshqa zarur jihozlar bilan ta'minlash.

7. Xavfsizlikni ta'minlash: O'quvchilarning maktabda xavfsiz bo'lishini ta'minlash, favqulodda vaziyatlarda harakat qilish bo'yicha chora-tadbirlar ko'rish.

8. Boshqaruvni samarali tashkil etish: Maktab faoliyatini rejalashtirish, nazorat qilish va baholashning samarali tizimini yaratish.

Natija:

Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda maktab jamoasi muhim rol o'ynashi haqida yuqorida aytilganidek maktab sharoitida o'quvchilarga vatan sevgisi, milliy qadriyatlar va tarixni o'rgatish orqali ularni jamiyatga faol va mas'uliyatli fuqaro sifatida tayyorlash mumkin. Maktabda o'tkaziladigan tadbirlar, darslar va maxsus loyihalar orqali yoshlarni vatanparvarlikka jalb qilish, ularning milliy muhitda o'z o'rniga ega bo'lishini ta'minlaydi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, vatanparvarlikni tarbiyalashda o'qituvchilarning mehnati, ota-onalarning qo'llab-quvvatlashi va o'quvchi jamiyatining faolligi muhimdir. Yagona maqsad — yoshlarni mustaqil fikr yuritishga va o'z mamlakatini sevishga undashdir. Shunday qilib, maktab jamoasi yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda asosiy kuchdir.

XULOSA

Vatanparvarlik tarbiyasi, o'quvchilarga milliy ongini, o'z vataniga bo'lgan mehrni va hurmatni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Maktabda har juma kuni tashkil etiladigan tarbiyaviy soatlar va sinfdan tashqari tadbirlar orqali o'quvchilarga vatanparvarlik ruhida tarbiya berish, ularning tarix, madaniyat, davlat ramzlari, harbiy xizmat, fuqarolik burchi kabi mavzularni o'rganishlariga imkon yaratadi.

Vatanparvarlik tarbiyasining samarali amalga oshirilishi uchun o'quvchilarning yosh xususiyatlarini, maktabning sharoitini va mamlakatdagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatni hisobga olish zarur. Bu orqali o'quvchilarga milliy qadriyatlar, tarixiy meros va zamonaviy yutuqlarni singdirish mumkin. Darslar va tadbirlar interaktiv usullarda tashkil etilishi, o'yinlar, loyihalar va munozaralar orqali o'quvchilarning fikrlash va jamoaviy ish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Shuningdek, vatanparvarlik tarbiyasini yanada samarali qilish uchun o'qituvchilarning malakasini oshirish, oilalar bilan hamkorlikni kuchaytirish va maktabda o'quv jarayonini yaxshilash muhim ahamiyatga ega. Vatanparvarlik tarbiyasini faqat darslar bilan cheklamasdan, sinfdan tashqari faoliyat, ko'rik-tanlovlar, musobaqalar va ekskursiyalar kabi tadbirlar orqali ham amalga oshirish mumkin. Bu orqali o'quvchilarga o'z vataniga bo'lgan mehrni va fidoyilikni singdirish, ularning yurt ravnaqi uchun hissasini qo'shishga bo'lgan tayyorgarlikni mustahkamlash mumkin.

Umuman olganda, vatanparvarlik tarbiyasi – bu yoshlarni milliy ongga, mas'uliyatga va yurtga bo'lgan sadoqatga yo'naltiruvchi muhim jarayon bo'lib, u butun maktab hamjamiyatining hamkorligi va faolligini talab etadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. 2022-2026 yillarga yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida [Elektron manba]: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-y. 28- yanvardagi Farmoni, PF-60-son / Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi: rasmiy sayti. – Kirish rejimi: <http://www.lex.uz>. – Murojat sanasi: 2022 y. 23.02.

2. Mirziyoyev, Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Xavfsizlik Kengashining kengaytirilgan yig‘ilishidagi nutqi [Elektron manba] / Sh.M. Mirziyoyev. – Kirish rejimi: <http://www.gazeta.uz/uz/2024/01/12/securitycouncil>. – Murojat sanasi: 2024-y. 25.01.

3. Ibrohimov, A., Sultonov, X., Jo‘raev, N. Vatan tuyg‘usi.–T.: “O‘zbekiston”, 2020. – 145-b.

4. Axrorov, Yu., Qobilova, R. O‘rta Osiyo mutafakkirlarining pedagogik qarashlari. – Samarqand: SamDU nashri, 2019. –57-b.

5. Norbo‘taev, X. Darslarni interfaol uslubda tashkil etishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish. Konsentrik ta‘lim kontekstida innovatsion texnologiyalar. Ilmiy-uslubiy maqollar to‘plami. –T.: “Yangi sharq”, 2017. – 139- b.

6. Xolmatov, P.Q. Darsdan tashqari mashg‘ulotlar jarayonida o‘quvchilarni kasbhunarga yo‘llash. 13.00.02-Mehnat ta‘limi nazariyasi va metodikasi. Ped. fan. nomz. diss. – Guliston, 2004. – 134-b. 7. Ochilov, M. O‘qituvchi–qalb me‘mori.–T.: “O‘qituvchi”, 2021. –104-b.

7. Raxmonov, A. R., & Luxmanov, D. B. (2020). Maktablarda ta‘limning ijtimoiy sheriklik modelini yaratishda klaster yondashuv. Academic research in educational sciences, (4).

8. A.R.Raxmonov Uzluksiz ta‘lim tizimida milliy iftixor tuyg‘usini shakllantirish ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida “Uzluksiz ta‘lim” ilmiy uslubiy jurnal //2020-Toshkent.

9. Musurmonov, R., Burkhonov, A., & Musurmonova, M. (2021). Innovative activity- a factor of educational efficiency. European Journal of Molecular & Clinical Medicine, 8(3), 1238-1241.

10. Barakayevich, Q. S., & Baxtiyorovna, A. S. (2021). Xalqaro dastur talabalari asosida innovatsion ta'lim muhitini yaratish. Integration of science, education and practice. scientific-methodical journal, 1(02), 132-137.

Elektron resurslar

<http://maktab.uz/>

<http://yoshlar.uz/>

<http://vatanparvarlik.uz/>

<http://ota-ona.uz/>

arxiv.uz/